

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**60211500-Cholg'u ijrochiligi (Xalq cholg'ulari) ta'lim
yo'nalishi bitiruvchilarining maxsus (majburiy) fanlar
bo'yicha attestatsiya sinovi**

DASTURI

2024/2025 o'quv yili

Tuzuvchilar:

M.A.Axmedov

NamDU Pedagogika fakulteti, San'atshunoslik
kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

R.Qo'shino


NamDU Pedagogika fakulteti, San'atshunoslik
kafedrası dotsenti o'qituvchisi

D.Xamdamova

NamDU Pedagogika fakulteti, San'atshunoslik
kafedrası dotsenti o'qituvchisi

60211500 – Cholg'u ijrochiligi (Xalq cholg'ulari) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi dasturi San'atshunoslik kafedrasining 2025-yil 24 -yanvardagi № 6 -sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



X. Soliyev

60211500 – Cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat universiteti Kengashining 2025-yil 30 -yanvardagi № 6 -sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.



Kengash kotibi

A.To'xtaboyev

I. UMUMIY QOIDALAR

1. 60211500 – Cholg'u ijrochiligi (Xalq cholg'ulari) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o'rinlarda – **Dastur**) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda 836-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 25-avgustdagi 365-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "60211500 – Cholg'u ijrochiligi (Xalq cholg'ulari) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" (keyingi o'rinlarda – **Malaka talablar**) hamda Namangan davlat universiteti Kengashining 2021-yil 30-avgustdagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining (keyingi o'rinlarda – **O'quv rejas**)i) majburiy fanlar blokida umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi (keyingi o'rinlarda – **Attestatsiya sinovi**) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi fanlarni va ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan, belgilangan kreditlarni to'plagan hamda to'lov-kontrakt shartlarini to'liq bajargan bitiruvchi kurs talabalariga ishtirok etish uchun ruxsat beriladi.

3. Attestatsiya sinovi universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan 60211500 - Chog'u ijrochiligi yo'nalishi o'quv rejasining majburiy fanlar bloki tarkibidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar o'quv dasturlari asosida o'tkaziladi.

4. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

II. ATTESTASIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI

5. 2024/2025 o'quv yilida 60211500 – Cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi –amaliy shaklda o'tkaziladi.

6. O'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shakli o'zgartirilishi mumkin emas.

7. Attestatsiya sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga yetkaziladi.

8. Attestatsiya sinovi Namangan davlat universiteti bazasida, talabalar sig'imiga qo'yiladigan texnik talablarga mos, Attestatsiya sinovi shaklidan kelib chiqib jihozlangan o'quv xonalarida o'tkaziladi.

III. ATTESTATSIIYA SINOVI SAVOLNOMASI

9. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining

- professional kontsert ijrochilari;
- orkestr (ansambl) artistlari va ularning saxnadagi chiqishlari;
- kontsert ijrochilik-ko'nikmalari;
- musiqaning shakl taxlilini ochib beruvchi nazariy asoslar xaqida tasavvurga ega bo'lish;

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI UCHUN

SAVOLLAR RO'YXATI

Xalq cholg'ularida ijrochilik

1. O'rganilayotgan musiqiy asarlar haqida mustaqil mushohada yuritish;
2. Musiqaning ifoda vositalariga oid tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish;
2. O'rganilayotgan musiqiy asarning badiiy jihatlarini aniqlash va ularga to'la baho berish;
3. O'rganilayotgan musiqiy asar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;
4. O'rganilayotgan musiqiy asarlarni nazariy tahlil etish va ijrochilik uslublarini aniqlash.
5. O'zbek xalq cholg'ularida ijro apparatini tayanch nuqtalariga asoslangan holda to'g'ri qo'yishni o'rganish hamda ularni tahlil qilish.
6. Torli chertma cholg'ularda qo'llaniladigan zarblarni o'rganish va ularni ijro etish (gamma, mashq yoki musiqiy asar misolida).
7. Har bir cholg'uda applikatura asoslari va pozitsiyalarni o'rganish hamda ijro etish.
8. Musiqiy asarlar ustida ishlash jarayonini o'rganib olish va xalq cholg'ulari uchun maxsus yaratilgan asarlarni ijrochilik nuqtai nazardan tahlil qilish.
9. Zarbli cholg'ularda ijrochilik mahorati asoslari o'rganish tahlil qilish hamda mahorat sirlarini amaliyotda sinab ko'rish

10. Ijro mahorati ustida ishlashning umumiy yo'llari, yakka, ansambl va orkestr tarkibida ijro etish vazifalarini o'rganish va o'z amaliyotida sinab ko'rish.

11. Torli kamonli va damli cholg'ularda qo'llaniladigan zarblarni aniqlash va musiqa namunalari orqali namoyon etish.

12. Berilgan asarlarni fortepiano jo'rligida ijro jarayonida ansamblga erishish

13. Asarlar mualliflari xaqida ma'lumotlarga ega bo'lish

14. Asarlarni jummalarga bo'lish

15. Asarlarni shtrixlarini to'g'ri ijro qilish va applikaturaga e'tibor berish

16. Trel nima?

17. Al - Farobiy musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: Kishi ovozigacha yaqin tovush chiqaradigan cholg'u asboblari qaysi birlari?

18. Musiqa asarida ayrim qismlarini takroriy ijro qilish uchun belgi qanday nomlanadi?

19. Mediator bilan rubob tolarida pasta yoki yuqoriga tomon qisqa uzib-uzib chalish usulini nima deyiladi?

20. Unison nima?

21. Trel nima?

22. Tremolo nima?

23. "Arco" atamasi nimani anglatadi?

24. "Pizzicato" atamasi nimani anglatadi?

25. Kamerton nima?

26. Manual nima?

27. "Divisi" atamasi nimani anglatadi?

28. Diapazon nima?

29. Detashe nima?

30. Vibratsiya nima?

Orkestr sinfi

1. Dirijyorlik holati.

2. Dirijyorlik harakatlari va ularning vazifalari.

3. Dirijyorlikda oddiy chizmalar.

4. Orkestr turlari va cholg'u hususiyatlari.

5. Chap va o'ng qo'l vazifalari.

6. Orkestr partiturasini tarkibiga kirgan cholg'ular.

7. O'ng va chap qo'llar vazifalarining dirijyorlikda amaliy qo'llanilishi.

8. Dirijyorlikda dinamik belgilar.

9. Transport qilinadigan cholg'ular.

10. Dasturiy asarlar ustida ishlash.

11. Asarning badiiyligini talqin etish.

12. Asarda jumla.

13. Orkestr ijrosida ansamblga erishish.

14. Orkestr guruhlaridagi shtrixlar to'g'ri ijrosiga erishish.

15. Jamoadagi umumiy dinamik tovushning mutanosibligiga erishish.

16. Ijroda musiqiy obrazlarni ifoda etish.

17. Orkestr mashg'ulotlarini tashkillashtirish.

18. Partitura o'qish mahoratini oshirish.

19. Orkestr bilan amaliy mashg'ulotlar olib borish.

20. Konsert jarayoniga tayyorgarlik.

21. Berilgan asarlar partiyalarini yoddan chalish

22. Akkolada nima?

23. Diapazon nima?

24. Bir xil nomli tovushlar oralig'idagi eng yaqin masofaga nima deb ataladi?

25. Urma zarbli cholg'ularni sanag

26. Torli cholg'ularni sanang

27. O'zbek musiqa ijrochiligida ansambl.

28. Rubobda ijro etilgan notalar qaysi kalitda yoziladi?

29. Ansamblda cholg'uchilar tarkibi.

30. Notadan o'qish va ijro etish.

Xalq cholg'ularida o'qitish uslubi

1. Damli cholg'ularda qo'llaniladigan zarblar.

2. Musiqiy bezaklar va ularni ijro etish usullari

3. Applikatura asoslari va pozitsiyalar

4. Musiqiy asarlar ustida ishlash.

5. Torli mizrobli cholg'ularda tovush chiqarish vositalari.

6. Xalq cholg'ularida pastanovka ustida ishlash

7. Zarbli cholg'ularda ijrochilik maxorati

8. Torli kamonli cholg'ularning ijro imkoniyatlari va zarblari xususida

9. Xalq cholg'ularining ijrochilik imkoniyatlari. Damli cholg'ular (nay, qo'shnay)da qollanadigan shtrixlar

11. Torli urma chertma (chang, qonun) cholg'ularda zarblarning turlari

12. Applikatura asoslari va pozitsiyalar

13. Zarbli cholg'ularda qo'llaniladigan zarblar xaqida.

14. Xalq cholg'ularining ijrochilik imkoniyatlari. Zarbli cholg'ular (doyra, nog'ora) da qollanadigan zarblar

15. O'zbekiston kompozitorlari ijodida kontsert janri

16. O'zbek xalq musiqasining rivojlanish tamoyillari haqida

17. Puflama cholg'ular guruhi

18. Torli urma cholg'ular
19. Mizrobli cholg'ular
20. Uрма zarbli cholgular
21. Kamonli cholg'ular
22. Ijro va ifoda vositalarining bir biridan farqi.
23. Ijrochilik jarayonida psixologik va maonaviy jihatlarning ahamiyati.
24. Konsert ijrochiligiga tayyorlash uslublari.
25. Xalq cholg'ularida sifatli ovoz tarovatini hosil qilish ko'nikmalari.
26. Musiqiy bezaklar va ularni qo'llash usullarini o'rganish
27. Sharq olimlarining risolalarida musiqani jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati.
28. Xalq cholg'ulari ijrochiligining jismoniy va ruxiy asoslari.
29. Musiqiy eshitish qobiliyati, xotira va usul sezgisi.
30. Idrok va xotira

Cholg'ushunoslik (o'zbek xalq cholg'ulari orkestri)

1. Sonata shakli va uning O'zbekiston kompozitorlari ijodida qo'llanilishi
2. Murakkab uch qismli shakl
3. Vokal musiqa va vokal shakllar
4. Sharq monodik musiqaning tuzilish shakllari
5. Musiqiy janr tushunchasi va uning turlari
6. Ritm
7. Variatsion shakl va uning turlari
8. Musiqiy kompozitsiya va uning vaqt darajalari
9. Oddiy shakllar
10. Turkumli shakllar va ularni rivojlanishi.
11. Adagio shakli.
12. Oddiy ikki qismli shakl va uni tadrijiyoti
13. Davriya. Davriyaning funktsional va tuzilmali xususiyatlari.
14. Davriyaning tasnifi.
15. Ovozlarining o'ziga xos xususiyatlari.
16. Qo'shnay tarixini ayting.
17. Fortepiano nechta oktavadan iborat?
18. Mazurka qanday asar?
19. Chang cholg'usining simlari necha simdan iborat?
20. O'zbek kompozitorlari va bastakorlaridan sanab bering.
21. Afg'on rubobi necha qismga bo'linadi va qanday sozlanadi?
22. Rapsodiya qanday asar?

23. Kontrabass qaysi intervalga sozlanadi?
24. Safoil qaysi mahalliy hududga mansub?
25. Simfonik orkestr haqida tushuncha bering.
26. Chardash asari qaysi cholg'u asbobi uchun yozilgan?
27. Kontsert haqida ma'lumot bering.
28. Etyud qanday asar?
29. Fuga qaysi cholg'u uchun yozilgan asar?
30. Uvertyra nima?

Partitura o'qish (o'zbek xalq cholg'ulari orkestri)

1. Partitura nima?
2. Transpozitsiya nima?
3. Transpozitsiya qilinadigan cholg'ular qaysilar?
4. Duet nima?
5. Trio nima?
6. Kvartet nima?
7. Musiqa ifoda vositalari
8. Sonata shakliga oid atamalar lug'ati
9. Kompozitsiya va dramaturgiya
10. Musiqiy janr tushunchasi va uning turlari
11. Qo'shnay va nayning farqi nimada?
12. Muhammasi Chorgoh qaysi maqom turiga kiradi?
13. Saksofon qaysi cholg'u guruhiga kiradi?
14. Muhammasi Dugoh qaysi maqom turiga kiradi?
15. Karnay qanday asbob?
16. Muhammasi Dugoh qaysi maqom turiga kiradi?
17. Karnay qanday asbob?
18. Musiqiy eshitishning ahamiyati
19. Puflama cholg'ular guruhi
20. Torli urma cholg'ular
21. Mizrobli cholg'ular
22. Uрма zarbli cholgular
23. Kamonli cholg'ular
24. Musiqiy janr va uslub.
25. Bayon etish turlari. Qismlar funktsiyasi.
26. Ovozlarining o'ziga xos xususiyatlari
27. Konsert ijrochiligining o'ziga xos tomonlari
28. Ijro va ifoda vositalarining bir biridan farqi.

29. Ijrochilik jarayonida psixologik va maonaviy jihatlarning ahamiyati.
30. Konsert ijrochiligiga tayyorlash uslublari.

IV. ATTESTATSIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

11. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholashda 5 baholik tizim qo'llaniladi.

13. Talabaning Attestatsiya sinovidagi natijalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Talaba berilgan asarni mukammal yoddan ijro qiladi, mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, asarni taxlil qiladi, o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi, topshiriq (asar)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda ijro etilgan asar bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – "5" (a'lo) baho;

Talaba asarni to'liq yoddan ijro etadi, mustaqil mushohada yuritadi, o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi, ijro etilgan asarning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda asar bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – "4" (yaxshi) baho;

Talaba asarni to'liq ijro eta olmaydi, o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi, asarning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda asar bo'yicha to'liq tasavvurga ega deb topilmaganda – "3" (qoniqarli) baho;

Talaba mazkur Dasturni o'zlashtirmagan, asarning mohiyatini tushunmaydi hamda asar bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – "2" (qoniqarsiz) baho.

14. Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda Attestatsiya sinovilari natijalari Komissiya tomonidan e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat davomida apellyatsiya berishi mumkin.

Talabaning apellyatsiya murojaati universitet rektori buyrug'i asosida tuziladigan Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko'rib chiqiladi va uning natijasi bo'yicha qaror qabul qilinadi.

V. ATTESTATSIYA SINOVI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI VA QO'SHIMCHA USLUBIY KO'RSATMALAR

16. Dasturni o'zlashtirish bo'yicha foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati Asosiy adabiyotlar

1. Odilov A. - O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. T., "O'qituvchi" nashriyoti, 1995.
2. Lutfullaev A. - O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati tarixi. T., "Musika" nashriyoti, 2006.
3. Tashmatova A. - Ijrochilik san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. T., "Musika", 2018.
4. Tashmatova A. - So'g'diyona davlat xalq cholg'ulari kamer orkestri. T., "Tafakkur qanoti", 2016.
5. Nurmatov H. - Rubob darsligi. T., 2003.
6. Ergashev G'. - Afg'on rubobi darsligi. T., 2004.
7. Nazarov O. - Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti. T., 2008;

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Xodjayeve R. - "Xalq cholg'ularida ijrochilik" T., Musika nashriyoti 2020;
2. Sharipov N. - "Xalq cholg'ularida ijrochilik" T., Musika nashriyoti 2019;
3. Amanov A. - Rubob prima uchun xrestomatiya. T., 2013.
4. Sh.Rahimov, A.Lutfullayev "Cholg'ushunoslik" T. 2010y.
5. A.I.Petrosyans. Instrumentovedeniye "Uzbekskiy narodniy instrumenti". T.1951y.
6. T.Vizgo, A.Petrosyans. "Uzbekskiy orkestr narodnix instrumentov". T.1962y.
7. A.X.Liviye. "Rubob orkestri tashkil qilish metodikasi". T.1978y.
8. A.X.Liviye. "O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrlari". T.1971y.
9. Z.Turapov. "Dutor bas". T.2004y.

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

17. Dasturda belgilangan qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me'yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me'yorlar amal qiladi.

18. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga etkaziladi hamda universitetning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

19. Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.